



## QISHLOQ MAKTABLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGIGA INFRATUZILMA VA ICHKI MOTIVATSIYANING TA'SIRI (Boshlang'ich sinf misolida)

**Mualliflar:** Islamova Fotima Shamsiddinovna<sup>1</sup>, Eshnazarova Odina Sodikjon qizi<sup>2</sup>

**Affiliyatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi<sup>1</sup>,  
Xalqaro Nordik Universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19662279>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qishloq hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar infratuzilma holati, zamonaviy texnologik ta'minot hamda o'quvchilarning ichki motivatsiyasi o'zaro bog'liqlikda ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinfida o'tkazilgan pedagogik kuzatuv va eksperimental tahlillar asosida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, infratuzilma yetishmovchiligiga qaramay, o'quvchilarning ichki motivatsiyasi yuqori darajada saqlanib qolgan bo'lib, bu ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ushbu motivatsiyani yanada kuchaytirib, o'quv natijalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** qishloq maktabi, infratuzilma, motivatsiya, boshlang'ich ta'lim, pedagogik samaradorlik, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim muhiti.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasi ijtimoiy taraqqiyotning strategik ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, uning mazkur maqomi milliy qonunchilik bazasida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu sababli mamlakatimizda ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasi etib e'lon qilindi. 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida ta'lim sohasida ustuvorlik, uzluksiz ta'lim, inklyuzivlik va imkoniyatlar tengligi tamoyillari mustahkamlandi. Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan maktab binolari va infratuzilmasini modernizatsiya qilishga oid qator qarorlar qabul qilindi. Masalan, 2022-yil dekabrda tasdiqlangan dasturlarda maktab binolari qurilishi, rekonstruksiya va jihozlanishi bilan bir qatorda, elektron doskalar ta'minoti ham nazarda tutilgan. Shuningdek, amaldagi siyosat maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda yoshlarni mantiqiy fikrlash, keng dunyoqarash va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaydi.

Bugungi islohotlarning amaliy asosini tashkil etuvchi eng so'nggi hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevralda qabul qilgan "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-22-sonli Farmoyishi<sup>1</sup> bo'ldi. Ushbu "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5848414>

tadbirlar to'g'risida" Farmoyishida umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasini va infratuzilmasini mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rsatilib, ta'mirtalab binolarni aniqlash va mahalliy budjet hisobidan ta'mirlash ko'rsatilgan. Farmoyish bilan «elektron doskalar» ishlab chiqarishni mahalliyashtirish masalasi ham belgilab qo'yildi. Ta'lim sifati va pedagog kadrlarni tayyorlashni oshirish bo'yicha ham kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. Jumladan, ta'lim jarayonida o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi media-resurslar yaratish topshirildi.

Zamonaviy ta'lim tizimida sifati ko'rsatkichlari ko'p jihatdan ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik va moddiy-texnik ta'minoti bilan belgilanadi. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi maktablarda infratuzilma va texnologik imkoniyatlarning yetarli emasligi ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa shaxsning intellektual rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu davrda o'quvchilarda bilim olishga nisbatan munosabat, motivatsiya va tafakkur asoslari shakllanadi. Agar ushbu jarayon zamonaviy pedagogik vositalar bilan qo'llab-quvvatlanmasa, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim qishloq maktablarida sharoit cheklangan bo'lsa-da, o'quvchilarda bilimga bo'lgan intilish yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki omillarni chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Mazkur maqolada keltirilgan amaliy misol Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumanidagi 31-maktabda o'tkazilgan pedagogik amaliyot natijasidir. Maktabning 2-“B” sinfida o'quvchi bolalar bilan ishlash jarayonida bir qator muammolar aniqlandi:

- binoning yoshi katta, hozirga qadar mukammal ta'mir qilinmagan;
- o'quvchilarga birinchi sinfdan boshqasiga elektron doska taqdim etilmagan;
- kitob va o'quv-metodik qo'llanmalarga ehtiyoj bor.

Bunday infratuzilma muammolari “Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi F-22-sonli farmoyishda qayd etilganidek, maktablarni qayta jihozlash kerakligini ko'rsatadi.

Amaliyotni o'tkazishda kuzatish, suhbat va diagnostik testlardan foydalandik. Awalo o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun boshlang'ich diagnostika testlari o'tkazildi. Keyinchalik integrativ dars metodikasi (fanlararo bog'liqlik asosida topshiriqlar tizimi) bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etdik. Yakunda esa post-test natijalarini qiyosladik. Tajribada jami 20 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tadqiqotdan olingan statistik ma'lumotlar tahlili uchun sodda model ishlab chiqildi. Modellashda ta'lim samaradorligini belgilovchi uch omil ajratildi: **ichki motivatsiya, zamonaviy texnologiya (jihozlar) va pedagogik metodika**. Har bir omil o'z ta'siri og'irligiga ko'ra baholandi. Quyidagi jadvalda ta'lim samaradorligiga omillarning taxminiy foiz ta'siri keltirilgan (jami 100%):

OMIL	TA'SIR DARAJASI (%)
Ichki motivatsiya	60 %
Zamonaviy texnologiya	25 %
Metodik yangiliklar	15 %

Ushbu modeldan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning ichki motivatsiyasi ta'lim natijalariga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiya va metodik yangiliklar esa yordamchi, lekin muhim ahamiyatga ega. Normativ hujjatlarda ta'limni rivojlantirish bo'yicha dasturlar shunday tizimni qo'llab-quvvatlaydi: maktablarga yangi jihozlar kirib borishi, o'qituvchilarning malakasini oshirish belgilangan.

Boshlang'ich test natijalariga ko'ra o'quvchilarning o'rtacha bilim darajasi 40% edi. Integrativ topshiriqlar asosida olib borilgan darslardan so'ng yakuniy test o'rtacha 70% natija berdi. Bu bilan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 30 foiz punkti o'sdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, qishloq maktabida mavjud sharoitga qaramay, sinfning o'quvchilari yuqori natija ko'rsatishdi.

Natijalarni tahlil qilganda aniqlangan o'ziga xos jihatlar:



Bunda davlat dasturlaridagi ko'rsatmalarga amal qilinishi zarur: masalan, maktablarni qurish, rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash ishlarini mahalla jamoatchiligi nazorati ostida olib borish; yaqin istiqbolda sinflarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash (elektron doskalar, laboratoriya uskuna va boshqalar) lozim.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, maktabdagi yuqori natijalarga asosan **ichki motivatsiya** sababchi bo'ldi. Bolalarning bilim olishga chanqog'i va ota-ona hamda jamoatchilik qo'llab-quvvatlashi bu natijalarni ta'minlaydi. Xuddi shunday, normativ hujjatlarda ham motivatsiyaga e'tibor qaratiladi: masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 11.05.2022 yilda qabul qilgan PF-134-sonli Farmoni<sup>2</sup>da o'qituvchi kasbining obro'sini oshirish va pedagoglarning malakasini muntazam ravishda oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Yana bir mulohaza: texnologiya motivatsiyani yanada kuchaytiruvchi omil. Binoda faqat an'anaviy sinf taxtasi yoki daftarlari bo'lsa ham, fanlardan darslarini interaktiv usul

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/6008663>

bilan olib borishga harakat qilindi. Bu tajriba shuni ko'rsatdiki, sharoit yaxshilanganda (masalan, elektron doskalar joriy etilganda) o'quvchilar yanada faol va erkin bo'lishadi.

Amalga oshirilgan tajriba hamda e'tirof etilgan normativ yo'nalishlar orasida uzviy bog'liqlik mavjud. Masalan, yuqorida keltirilgan tegishli Farmoyishda ta'kidlanganidek, "ta'limda barcha ma'lumot almashinuvi jarayonlarini yagona elektron tizim orqali amalga oshirish" masalasi maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni nazarda tutadi. Bu biz pedagogik amaliyot o'tkazilgan ta'lim muassasasida ham biroz sustligini sezgan elektron ta'minot bilan bog'liq masalalarni yana bir bor ko'rib chiqishga turtki beradi. Natijalarimiz shuni anglatadi o'quvchilarning tafakkuri va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asosiy manba samarali ta'lim muhiti va a'lo darajada pedagogik rahbarlikdir. Yangi o'quv resurslari, zamonaviy metodikalar va texnologiyalar esa bu mavjud kuchni yanada kuchaytiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ta'lim – davlat ustuvorligi. O'zbekiston hukumatining normativ-huquqiy hujjatlari ta'limni ustuvor soha deb e'lon qilgan. Bu doimiy e'tibor maktab infratuzilmasini yaxshilash va pedagogika sifatini oshirish uchun asos bo'ladi. Qishloq maktablaridagi jihozlar va binolarni isloh qilish zarurati rasmiy ravishda belgilangan. Bizning misolda ham binoning yoshi va jihozlar yetishmasligi aniqlandi. Davlat dasturlari asosida mahalliy hamda xalqaro mablag'lar jalb etilib, maktab ta'mirlari va jihozlari amalga oshirilsa, bu o'quv muhitini sezilarli yaxshilaydi. Shuningdek, o'quvchilarning bilim olishga chanqoqligi va jamoatchilik qo'llab-quvvatlashi ta'lim natijalarini belgilovchi asosiy omillar ekanligi kuzatildi. Shu bois pedagog xodimlarni malakali tayyorlash va rag'batlantirishga e'tibor qaratish lozim. Qonunchilik esa pedagoglarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va malaka oshirish bo'yicha kafolatlar beradi. O'qitishda fanlararo integratsiyani kuchaytirish va zamonaviy metodikalarni joriy etish ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim vositadir. Biz taklif qilgan integrativ topshiriqlar tizimi ham aynan shu yo'nalishda bo'lib, o'quvchilarda izchil fikrlash va amaliy ko'nikmalar hosil bo'lishini ta'minladi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ta'mirlash va xonalarni zamonaviy texnika bilan jihozlash, shu jumladan elektron doskalarni mahalliyashtirish tashabbusini amalga oshirish.
2. O'qituvchilarni integrativ ta'lim metodikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha muntazam qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish.
3. Mahalla, ota-onalar va xususiy sektor bilan hamkorlikda o'quvchilarni ta'limga rag'batlantirish, kutubxona va qo'shimcha ta'lim markazlari orqali qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Ushbu maqolada keltirilgan natijalar respublika ta'lim siyosatiga muvofiq bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hujjatlarida ta'kidlangan maqsad va vazifalarni to'liq o'zida aks ettiradi. Amaliyotimizdan kelib chiqqan holda ta'limni yanada chuqur isloh qilish va maktab sharoitlarini yaxshilash ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-22-sonli Farmoyishi. 03.02.2022 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-sonli Farmoni. 11.05.2022 yil.

4. Sh, I. F., & Vaniyan, S. B. (2021). The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches. *current research journal of pedagogics*, 2(12), 162-165.

5. Islomova, F., & Fayozova, F. (2021). Family traditions in vocational guidance, a guarantee of preparing young people for independent living. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 34-38.

6. Fayazova, F. S. H., Otajonova, O. A., & Islamova, F. S. H. (2021). The role of art therapy in the formation of healthy living skills in adolescents.

7. Vokhidova, N. K., Khalikova, Z. M., Islamova, F. S., & Abdulkhayeva, M. B. (2024). Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence. *Educational Administration: Theory and Practice*, 30(4), 1906-1909.

8. Xabibullayevna, V. N., Mirakbarovna, F. D., Mirshadmanovna, X. Z., Shamsuddinovna, I. F., Saydullayevich, N. M. B. R., & Sayfutdinqizi, F. K. (2025). Application of game technologies in education: in the context of uzbekistan. *Lex Localis: Journal of Local Self-Government*, 23.

9. Вохидова, Н. Х., & Халикова, З. М. (2016). Формирование толерантности у учеников начальных классов. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (6), 70-71.

10. Otajonova, O. A., Islamova, F. S., Fayazova, F. S., & Nematov, B. S. (2022). The Influence Of Parental Relationships On Adolescent Gender Identity. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10).

11. Islamova, Fotima. "Sun'iy Intellect Davrida Ta'lim Va Ijtimoiy Fanlar: Bilimdan Kompetensiyaga O'tishning Yangi Modeli." *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*, 2 Dec. 2025, doi:10.5281/zenodo.18103203